

UO‘T 633.11:631.52

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JANUBIY MINTAQASIDA
KO‘P YILLIK BUG‘DOY DONINING TEXNOLOGIK SIFAT
KO‘RSATKICHLARINI BAHOLASH

Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti
Tayanch doktorant; Nortojiyev Sunnatillo Farhod o‘g‘li
O‘simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti
q/x.f.d, professor: Amir Amanov
Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti
q.x.f.f.d., k.i.x.: Dilmurodov Sherzod Dilmurodovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning janubiy mintaqa iqlim sharoitlarida yetishtirilgan ko‘p yillik bug‘doy nav va tizmalarining don tarkibidagi oqsil miqdori va don namligi keltirilgan.

Kalit so‘zlari: ko‘p yillik bug‘doy, don, iqlim, namlik, nav, miqdor, tizma, oqsil, janubiy mintaq, baholash, tadqiqot, sifat.

Аннотация: В данной статье показано содержание белка и влажность зерна сортов и линий многолетней пшеницы, выращиваемых в климатических условиях южного региона Узбекистана.

Ключевые слова: многолетняя пшеница, зерно, климат, влага, сорт, количество, гряда, белок, южный регион, оценка, исследование, качество.

Annotation: This article shows the protein content and grain moisture content of perennial wheat varieties and lines grown in the climatic conditions of the southern region of Uzbekistan.

Key words: perennial wheat, grain, climate, moisture, variety, quantity, ridge, protein, southern region, evaluation, research, quality.

Kirish: Bug‘doy eng muhim don ekinlaridan biri bo‘lib, butun dunyo bo‘ylab taxminan 220 million gektar maydonda ekiladi. Bug‘doy oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda muhim ro‘l o‘ynaydi. Bug‘doy donida 11-20 % oqsil, 63-74% kraxmal, 2% atrofida moy bo‘ladi. Bug‘doy donining tarkibida oqsil moddalar asosan kleykovina tarkibida bo‘lganligi uchun uning unidan sifatli non tayyorlanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Ko‘p yillik bug‘doy shakllarini mahalliy rayonlashgan bir yillik navlar bilan turlararo duragaylash asosida global iqlim o‘zgarishiga mos ertapishar, hosildor, don sifat ko‘rsatkichlari yuqori hamda yuqori ildiz massasiga ega bo‘lgan qimmatli manbalar yaratishdan iborat.

Olimlarning qayt etishicha, ko‘p yillik bug‘doyning doni mayda bo‘lib, 1000 dona donning og‘irligi 16 -18 gramm bo‘lib, don hosildorligi 18 -20 s/ga ni tashkil qiladi.

Ko‘p yillik bug‘doyning ko‘rsatilgan kamchiliklarini bartaraf etib, yangi navlarni yaratish hisoblanadi [1].


Olimlarning takidlashicha, mahalliy sharoitda Grom, G‘ozgon, Bunyodkor, Shams navlari yaratilgan bo‘lib bu navlarga nisbatan KR17-FWWPYT-1597 va KRBW17-6 tizmalarda donning sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lganligi aniqlandi [2].

N.A.Aydarovlarning fikricha, ko‘p yillik bug‘doy namunalarning don tarkibidagi oqsil va kleykovina miqdori bo‘yicha standart navli kuzgi bug‘doyga qaraganda yuqori ekanligi aniqlandi [3].

Tadqiqot usullari. Tajriba davomida fenologik kuzatish, hisob va tahlillar Butunittifoq O‘simlikshunoslik instituti, (VIR 1984) uslubi bo‘yicha va biometrik tahlillar Qishloq xo‘jalik ekinlari Davlat nav sinash komissiyasining (1989) chiqargan uslubi, don tarkibidagi oqsil miqdori Kendal uslubi bo‘yicha va don namligi GOST 13586.5-93 bo‘yicha aniqlandi, matematik tahlillar B.A. Dospexov (1985) uslub asosida amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari. Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutining donning texnologik sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash laboratoriyasida don tarkibidagi oqsil miqdori va don namligi aniqlandi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, don tarkibidagi oqsil miqdori andoza “Bezostaya va Bezostaya 1” navlarida 18,2-17,5 % gacha bo‘lganligi aniqlandi. Andoza navlarga nisbatan oqsil miqdori yuqori bo‘lgan tizmalar soni 9 ta borligi qayt etildi. Bular, KR23-PW-ON-2, KR23-PW-ON-6, KR23-PW-ON-10, KR23-PW-ON-11, KR23-PW-ON-14, KR23-PW-ON-20, KR23-PW-ON-28, KR23-PW-ON-29 va KR23-PW-ON-34 tizmalarda andoza navga nisbatan don tarkibidagi oqsil miqdori 2,1-3,7 % ga yuqori ekanligi aniqlandi (**1-rasm**).



1-rasm: Ko‘p yillik bug‘doy nav va tizmalarining oqsil miqdori va don namligi % (Qarshi 2022-2023 yy).

Don namligi odatda 14-16 % gacha bo‘ladi , lekin iyun oyida havo harorati keskin ko‘tarilib ketishi oqibatida don namligi biroz pasayganligi aniqlandi. Olib borilgan tadqiqot natijalari tahlil qilinganda, dondagi namlig miqdori andoza “Bezostaya va Bezostaya 1” navlarida 8,2-8,3 % gacha bo‘lganligi ifodalandi. Andoza navlarga nisbatan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan tizmalar soni 9 ta borligi don namligini tahlil qilinganda aniqlandi. Bular, KR23-PW-ON-2, KR23-PW-ON-6, KR23-PW-ON-10, KR23-PW-ON-11, KR23-PW-ON-14, KR23-PW-ON-20, KR23-PW-ON-28, KR23-PW-ON-29 va KR23-PW-ON-34 tizmalarda don namligi 8,6-9,2 % gacha bo‘lganligi qayt qilindi.

XULOSA

Xulosa, ko‘p yillik bug‘doyning 34 ta nav va tizmalari ustida tadqiqot ishlarini olib bordik. Bunda ko‘p yillik bug‘doy nav va tizmalarining oqsil miqdori va don namligi o‘rganilganda andoza navlarga nisbatan oqsil miqdori va don namligi yuqori bo‘lgan tizmalar soni 9 ta bular, KR23-PW-ON-2, KR23-PW-ON-6, KR23-PW-ON-10, KR23-PW-ON-11, KR23-PW-ON-14, KR23-PW-ON-20, KR23-PW-ON-28, KR23-PW-ON-29 va KR23-PW-ON-34 tizmalarda oqsil va don namligi yuqori ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Amanov A., Musirmanov D. MAMLAKATIMIZ G‘ALLACHILIGIDA KO‘P YILLIK BUG‘DOY MANBALARIDAN FOYDALANISH // Iqlimning davom etayotgan o‘zgarishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligiga erishish uchun agrobiologik xilma-xillikni o‘rganish, saqlash va barqaror foydalanish muammolari. – 2023. – С. 653-655.

2. DILMURODOVICH, DILMURODOV SHERZOD, et al. "Productivity, quality and technological characteristics of bread wheat (*Triticum aestivum* L.) variety and lines for the southern regions of the Republic of Uzbekistan." *Plant cell biotechnology and molecular biology* 22.7-8 (2021): 63-74.

3. Айдаров А. Н., Шепелев С. С., Шаманин В. П. Оценка коллекции многолетней пшеницы в условиях южной лесостепи Западной Сибири // Письма в Вавиловский журнал генетики и селекции 2022. С.197-205